

kiritilayotgan cheklashlar to‘g‘risida, cheklashlarni xajmi va vaqtin ko‘rsatilgan holda “Iste’molchiga” oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to‘liq etkazib berilmaganligi yoki elektr ta’midotidagi boshqa buzilishlar to‘g‘risidagi “Iste’molchi”ning arizasini, ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko‘rib chikish, bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

“Iste’molchi”ga o‘rnatilgan tartibda etkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

“Iste’molchi”ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o‘zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko‘paytirish (kamaytirish) mumkin bo‘lmagan taqdirda - bu haqida, rad etish sababini ko‘rsatgan holda, iste’molchiga xabar qilish;

“Iste’molchi”da o‘rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o‘rnatish, plombalashni ta’minlash;

davlat standartiga muvofiq bo‘lgan elektr energiyasini etkazib berish.

Ta’midotchi korxona qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta’moti shartnomasi bo‘yicha taraflar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi shuningdek, shartnomalar shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, “Ta’midotchi korxona” buning natijasida etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, “Iste’molchi” esa etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. “Ta’midotchi korxona” “Iste’molchi” oldida moddiy javobgar bo‘lmaydi agar:

“Iste’molchi” elektr energiyasi iste’molining belgilangan rejimiga rivoja qilmay, elektr energiyasi iste’moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo‘l qo‘yganda, “Ta’midotchi korxona” tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatlari elektr energiyasi etkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog‘lik o‘chirishlar vaqtida elektr energiyasini etkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun “Iste’molchi” oldida moddiy javobgar bo‘lmaydi.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo‘lmaydigan va oldindan bilib bo‘lmaydigan favqulodda holatlarni o‘z ichiga olgan engib bo‘lmas kuch (fors-major) oqibatida o‘z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o‘tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o‘tkazish orqali hal qilishning iloji bo‘limganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibida hal qilinadi.

5.5. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo‘yicha iste’molchining elektr tarmog‘i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog‘iga uzatilganda, iste’molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste’molchining elektr tarmog‘iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog‘iga iste’molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o‘tkaziladi.

## VI. YAKUNIY SHARTLAR

6.1. SHartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha bo‘lgan muddatga tuziladi.

SHartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo‘yicha ariza bermagan bo‘lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu SHartnomaning amal qilish muddatini tugashidan